



ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA QOFIYANING O‘ZAK TARKIBIGA KO‘RA TURLARINING QO‘LLANILISHI

Toshtemirova Zulfizar Alisher qizi¹

¹ Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5813407>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-Dekabr 2021
Ma’qullandi: 25-Dekabr 2021
Chop etildi: 30-Dekabr 2021

KALIT SO‘ZLAR

asrori – guharbori,
“Hayrat ul-abror”,
Murdaf, Mujarrad,
Muqayyad, Muassas

ANNOTATSIYA

Jahon klassik adabiyotida Sharq she’riyatining, xususan, turkiy mumtoz lirikaning o‘rni beqiyos. She’riy asarlarni yuzaga keltirishda qo‘llanilgan so‘zlar, ularning mazmun va ohang mutanosibligi ijodkorning mahoratini ko‘rsatib turadi. Shu o‘rinda qofiya shoir mahoratini yuzaga chiqarishdagi asosiy vositalardan biridir.

Qofiya misralar oxirida keluvchi qo‘shimcha, so‘z yoki so‘z birikmalarining o‘zaro ohangdoshligidan hosil bo‘ladi. Qofiya misralarning oxirida yoki radifdan oldin keladi:

Jumla jahon shahlig‘idin **ori** bor,

Kimki gadodir dog‘i bir **yori** bor.

Ey karaming ollida ko‘hi **gunoh**,

Yelga uchib o‘ylaki bir parri **koh**.

Bo‘lsa ne maqsudg‘a **mayli** aning,

Haqdin o‘lub barcha **tufayli** aning.

Mumtoz Sharq she’riyatida ilmi qofiya deb atalgan fan mavjud bo‘lganki, unda qofiyaning xususiyatlari, tuzilishiga ko‘ra turlari, o‘zak tarkibiga ko‘ra turlari kabilar o‘rganilgan. Ma’lumki, qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra to‘rt turi bor. Bular quyidagilar:

1. Murdaf
2. Mujarrad
3. Muqayyad
4. Muassas

Ushbu qofiya turlarining aynan “o‘zak tarkibiga ko‘ra” deb nomlanishi qofiya bo‘lib kelayotgan so‘z tarkibidagi raviy harfi bilan bog‘liq. Chunki qofiyaning asosini aynan raviy harfi tashkil etadi. Raviy harfi qofiya bo‘lib kelayotgan so‘z aynan



o'zagidagi eng oxirgi undosh yoki cho'ziq o, o', u unllaridan biri bo'lishi mumkin.

Ko'ngli aning maxzani asrori ishq,

Nutqi aning abri
guharbori ishq.

Baytda ishq so'zi radif, *asrori* – *guharbori* so'zlari qofiya bo'lib kelmoqda. Bu so'zlarning raviy harfi – r undoshi.

Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan "Hayrat ul-abror" dostonida to'rtala qofiya turini ham uchratish mumkin. Bular orasida dostonida eng ko'p uchraydigani murdaf qofiya ekanligi e'tiborga molik. "Xamsa"dagi boshqa dostonlarda qofiyaning mujarrad

turi ustunlik qiladi. Fikrimizning isboti sifatida qofiya bo'yicha tadqiqotchilarning statistikasini keltirib o'tamiz. Xususan, "Layli va Majnun" dostonida mujarrad qofiya – 46%, murdaf qofiya – 39%, muqayyad qofiya – 8%, muassas qofiya – 6% qo'llanilgan. Bizning kichik tadqiqotimiz natijasida esa "Hayrat ul-abror" dostonida biroz boshqacha holat yuzaga keldi. "Hayrat ul-abror" dostoni 63 bob, 3988 bayt, 20 maqolat va 20 hikoyatdan tashkil topgan. Dostonida qo'llanilgan qofiya turlarini o'rganishimiz asnosida, jadvaldagi holat yuzaga keldi.

T/r	Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra turlari	qo'llanilish soni	% hisobida
1	Murdaf	1834 bayt	46%
2	Mujarrad	1594 bayt	40%
3	Muqayyad	360 bayt	9%
4	Muassas	200 bayt	5%

Murdaf qofiya "Hayrat ul-abror" dostonida eng ko'p qo'llanilgan qofiya turi ekan, buning sababini aniqlash uchun ushbu qofiya turi haqida ma'lumotlarni keltirib o'tishimiz maqsadga muvofiq.

Murdaf qofiya – qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Ridfli qofiya deb ham ataladi. Murdaf qofiya ikki xil bo'ladi. Birinchisi, *ridfi asliy* qofiya. Ridfi asliy qofiyada raviy harfidan oldin cho'ziq unllardan biri keladi va aynan shu cho'ziq unli ridfi asliy deb ataladi. Bayt misolida ko'rib o'tamiz:

Soqiy, olib kel qadahu qilma **noz**,

Ko'rki, ne mushtoqdur ahli **niyoz**.

Murdaf qofiyaning ridfi asliy turida bayt qofiyalaridagi hijolar cho'ziq hijo bo'ladi.

Qofiya bo'lib kelayotgan *noz-niyoz* so'zlari cho'ziq hijo bilan yakunlangan. Raviy esa cho'ziq "o" unllisidan keyin joylashgan "z" harfi.

Bir kecha zulmatqa olib **koinot**

Mehr nihon o'ylaki aynul **hayot**.

Murdaf qofiya raviy harfidan keyin harflarning qo'llanilish va qo'llanilmasligiga ko'ra **muqayyad** va **mutlaq** ko'rinishlariga ega bo'ladi. Biz yuqorida ko'rib o'tgan baytda *koinot-hayot* so'zlari o'zaro qofiya bo'lib kelmoqda. Har ikkala so'zda cho'ziq "o" unllisidan so'ng "t" harfi raviy bo'lib kelgan va qofiya bo'lib kelayotgan so'zlar raviy harfi bilan yakunlangan. Agar qofiya raviy harfi bilan yakunlansa, ya'ni, raviydan



so'ng harflar qo'llanilmasa, bunday qofiya **muqayyad** qofiya deb nomlanadi.

Agar raviy harfidan keyin yana harflar qo'llanilsa, bunday qofiya **mutlaq** qofiya deyiladi.

Sham' yorutub uy ichiyu **toshini**

Ev iyasi ko'prak uzub **boshini**.

Mutlaq qofiyaga to'xtalish bilan bir qatorda qofiya ilmiga doir bir qoidani eslab o'tish joiz. Qofiyadoshlik asosan so'zning o'zak qismida hosil qilinadi (vazn talabiga ko'ra yoki qofiyadoshlik talabidan ba'zi hollarda so'zning o'zagi va boshqa misragi so'zning qo'shimchasi o'rtasida; ikkala baytning qofiya bo'lib kelayotgan so'zlari qo'shimchalari o'rtasida ham qofiyadoshlikni yuzaga keltirish mumkin). Biz keltirgan baytda *toshini-boshini* so'zlari qofiya bo'lib kelmoqda. *Toshini-boshini* qofiyasida raviy harfi "sh" bo'lib, undan so'ng "i", "n", "i" harflari ketma-ket kelgan. Raviydan keyin qo'llanilgan harflar joylashish o'rniga ko'ra har biri o'z nomiga ega. Raviydan keyin joylashgan "i" harfi **vasl** deb nomlanadi. Vasldan keyin joylashgan "n" harfi **xuruj** deb ataladi. Xurujdan so'ng joylashgan "i" harfi esa **mazid** deyiladi. Agar maziddan keyin ham harf bor bo'lsa, u **noyira** deb ataladi.

Murdaf qofiyaning yana bir turi *ridfi zoyid* qofiya deb nomlanadi. Bunda qofiya bo'lib kelayotgan so'zning raviy harfi undosh bo'lib, undan oldin yana bir undosh va undan ham oldin cho'ziq unlilardan biri joylashadi. Ya'ni cho'ziq unli va qator undosh keladi. Agar formula ko'rinishida tushuntiradigan bo'lsak, taxminan quyidagicha bo'ladi: **con+v+con+con**. Bayt misolida *ridfi zoyid* qofiyani ko'rib o'tamiz.

Xayri rusul bo'lmog'i Tengriga **xost**

Harne risolatki qilib
borcha **rost**.

Niyat aning birla
burun **rost** qil,

G'ayrin aning
ko'nglunga **bexost** qil.

"Hayrat ul-abror" dostoni qo'llanilishi jihatdan mujarrad qofiya ikkinchi o'rinda turadi. Mujarrad qofiya istilohi arabchadan olingan bo'lib, "yakka, yolg'iz, tanho" degan ma'nolarni bildiradi. Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Bunday qofiyaning asosiy ikki ko'rinishi mavjud. Birinchisi, raviy harfi cho'ziq unlidan iborat bo'ladi.

Ikki jahoningg'a tilarsen **fazo** -

Hosil et ushbu ikkisidin **rizo**.

Garchiki, shah bazmi erur dilrabo,

Vojib erur aylamak andin **ibo**.

Mujarrad qofiyaning ikkinchi turida [raviy undosh bilan yakunlanib](#), undan oldin tavjih - qisqa unli kelishi asosiy talab hisoblanadi.

To'kdi jahon gulbuni bargi **suman**,

Ochdi falak bo'g'chasi **nastaran**.

Kimniki bedoding etibdur **asir**,

Bo'l anga adl ilgi bila **dastgir**.

"Hayrat ul-abror" dostonida murdaf qofiyadan so'ng eng ko'p qo'llanilgan qofiya turi mujarrad qofiya bo'lib,



buning asosiy sababi sifatida mujarrad qofiya yordamida yuzaga kelgan uzviylik va ohangning uyg'unligini aytish mumkin. Albatta, asarda har to'rtala qofiya turi ham aralash holda kelgan. Buning natijasida asarda ulug'vorlik va yaxlitlik ta'minlangan.

Mujarrad qofiya ham murdaf qofiyadagi kabi raviy harfidan keyin harflarning qo'llanilish va qo'llanilmasligiga ko'ra muqayyad va mutlaq ko'rinishlariga ega bo'ladi. Alisher Navoiy ijodida mujarrad qofiyaning bir necha turi keng qo'llanilgan. Masalan, mujarrad qofiyaning birinchi turi (raviyi cho'ziq unli)ning muqayyad ko'rinishini keltiramiz.

Yor erur andoq guhari **bebaho**,

Kim anga muhtoj ne shah, ne **gado**.

Gar sanga bor ersa, bu so'zda **xafo**,

Qaysi pari chehrada ko'rdung **vafo**?

Endi xuddi shu cho'ziq raviyli mujarrad qofiyaning mutlaq ko'rinishini keltiramiz.

Bu duri noyob **vafomu** ekin

Gar ul emas, **mehrigiyomu** ekin. (1)

Mehrigiyo demaki, **anqodur** ul,

Javhari fardu duri **yaktodur** ul. (2)

Birinchi baytga e'tibor qarataylik, unda *vafo-mehrigiyo* so'zlari o'zaro qofiyadosh bo'lib kelgan va raviy harfidan so'ng yana ikkita harf – "m" (vasl), "u" (*xuruj*) harflari joylashgan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, raviydan

so'ng kelgan ikkinchi o'rindagi harf *xuruj* deb nomlanadi va qofiya nomlanishida ham oxirgi kelgan harf qo'llaniladi. Ya'ni bu qofiyani **mujarradi mutlaqi xuruj** deb nomlash mumkin.

Ikkinchi baytda *anqodur-yaktodur* so'zlari qofiya bo'lib kelgan. Bunda raviydan keyin joylashgan oxirgi harf "r" harfi bo'lib, ushbu harf *mazid* istilohi bilan ataladi. Demak, bu qofiyani biz **mujarradi mutlaqi mazid** deb nomlashimiz mumkin.

Mujarrad qofiyaning ikkinchi turiga, ya'ni, raviy undosh bilan tugagan va raviydan oldin qisqa unli kelgan turiga bayt keltiramiz.

Roy ila zulmatni **munir** aylamak,

Lutf ila olamni **asir** aylamak.

Shodliq ashobi yaming'a **raqam**,

Safhalari lavhig'a yetmay **qalam**.

Ushbu baytlarni 2-mujarradi muqayyad deb nomlash mumkin.

Raviy harfidan so'ng *vasl* kelgan baytni ko'rib o'tamiz.

Sahni havoda to'shalib **mafrashi**,

Azmda el xayli **janibatkashi**.

Bu baytda qofiyalanuvchi *mafrash-janibatkash* so'zlaridan so'ng "i" harfi *vasl* bo'lib kelgan. Uni tadqiqot jarayonida qulaylik yaratish maqsadida shartli ravishda **2-mujarradi mutlaqi vasl** deb nomlash mumkin.

O'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi



qofiyalardan yana biri muassas qofiya deb nomlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.
2. Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия: Филол. фан. номз. дис. ... автореф. – Т., 1997.
3. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Т.:G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2006.
4. Alisher Navoiy. Xamsa. – Т.:Yangi asr avlodi, 2016.
5. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т. : Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
6. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Т.:Шарқ,1990.
7. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983.
8. Шарқ мумтоз поэтикаси: Манба ва талқинлар / Нашрга тайёрловчи, талқин ва шарҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006.
9. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik. – Т.: “TAMADDUN”, 2018.
10. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Ta‘lim-media, 2019.